O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i
_________ A.Abdunazarov
2024- yil “29” 06 ________

PEDAGOGIKANING PRAGMATIK ASPEKTLARI

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Magistratura mutaxassisligi:	70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi

Toshkent – 2024

Fan/modul kodi PPA1005 (magistratura)		O‘quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS-Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Pedagogikaning pragmatik aspektlari	60	90	150	

2.

I. Fanning mazmuni.

Fanni o‘qitishdan maqsad – magistrantlarni pedagogikaning pragmatik aspektlarini chuqur o‘zlashtirishlariga erishish va ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash.

Fanning oldiga qo‘ygan vazifalari:

- ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida magistrantlarni pedagogikaning pragmatik aspektlariga doir dolzarb masalalarni aniqlash;
- tahlil etish va ulardan amaliyotda foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari).

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. **Uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashning asosiy yo‘nalishlari.**

Ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashning asosiy maqsad va vazifalari. Ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash omillari. Uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyalari.

2-mavzu. **Ta’limiy konsepsiyalarning umumiy tavsifi, mazmuni va mohiyati.**

Ta’limning falsafiy konsepsiyalari. Ta’limning psixologik konsepsiyalari. Ta’limning sotsiologik konsepsiyalari. Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy konsepsiyalari.

3-mavzu. **Pedagogik tizimlarni loyihalashtirish.**

Uzluksiz ta’lim tizimida loyihalashtirishning o‘rni va imkoniyatlari. Pedagogik loyihalashtirishning konseptual asoslari: pedagogik loyihalash shakllari; pedagogik loyihalashning psixologik asoslari; pedagogik loyihalashning tamoyillari; pedagogik obyektlarni loyihalashtirishga doir harakatlar tartibi va tavsifi. Ta’lim tizimini loyihalashtirish: uzluksiz ta’lim tizimida innovatsiya; loyihalashtirishning asosiy bosqichlari; loyihalashtirishga doir faoliyatning muvaffaqiyatini ta’minlash shartlari. O‘qituvchining loyihalashtirishga doir faoliyatining tuzilishi va o‘ziga xosliklari.

4-mavzu. **Hamkorlik pedagogikasining konseptual g‘oyalari.**

Shaxsiy-insonparvarlik yondashuvi: pedagogik muloqotni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish; zamonaviy sharoitda natijaga olib

	kelmaydigan to‘g‘ridan to‘g‘ri majburlashdan metod sifatida voz kechish; ta’lim oluvchi shaxsiga individual yondashuv. Didaktik faolllashtiruvchi va rivojlantiruvchi kompleks: fanlarni integratsiyalash; ta’limning variativligi va tabaqalashganligi; o‘rgatishda ijobiy rag‘batlardan foydalanish. Tarbiya konsepsiyasi: tarbiyaga insonparvar yondashuv; tarbiyalanuvchilarning individualligini rivojlantirish; milliy va madaniy an’analarni o‘zlashtirish; atrof-muhitni pedagogizatsiyalash. 5-mavzu. **Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolar va ularni hal etish strategiyalari.** Pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarning o‘rganishning zaruriyati va o‘ziga xos jihatlari. Pedagog faoliyatida yuzaga keladigan muammolarning kelib chiqish sabablari. Kasbiy yetuklik darajasi bilan bog‘liqlikda pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni hal etish strategiyalari. Yosh pedagog kadrlarning kasbiy moslashuvini amalga oshirishda stajyorlik faoliyatining o‘rni. 6-mavzu. **Oliy ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning konseptual asoslari.** Oliy ta’limda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tizimi. Oliy ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari. Oliy ta’limda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning metodik ta’minoti. 7-mavzu. **Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash.** “Kompetensiya” va “kompetensiyaviy yondashuv” tushunchalari. Kompetensiyaviy yondashuv – oliy ta’limni modernizatsiyalashning yetakchi g‘oyalaridan biri. Kasbiy kompetentlikning turlari. Kasbiy kompetentlik mezonlari va ko‘rsatkichlari. 8-mavzu. **Ta’lim paradigmalari.** Ta’lim paradigmalari: ularning paydo bo‘lishi va rivojlanish tendensiyasi. An’anaviy ta’lim paradigmasi. Ratsionalistik ta’lim paradigmasi. Fenomenologik ta’lim paradigmasi. Texnokratik ta’lim paradigmasi. Ezoterik ta’lim paradigmasi. 9-mavzu: **Ta’lim mazmunini belgilashga doir konsepsiyalar.** Ilmiy-texnik taraqqiyot va ta’lim mazmuni. Didaktik ensiklopedizm konsepsiyasi. Didaktik formalizm konsepsiyasi. Didaktik pragmatizm konsepsiyasi. Funksional materializm konsepsiyasi. Ta’limning paradigmal konsepsiyasi. Ta’limning kibernetik konsepsiyasi. 10-mavzu. **Tarbiya jarayonini tashkil etishga doir yondashuvlar.** Tarbiya jarayonini tashkil etishga tizimli yondashuv. Tarbiya jarayonida faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning imkoniyatlari. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning o‘ziga xosliklari. Falsafiy-antropologik yondashuv tarbiya jarayonini tashkil etishning metodologik asosi sifatida. Tarbiya jarayoniga germenevtik yondashuv. Sinergetik yondashuv asosida tarbiya jarayonini tashkil etish. 11-mavzu. **Tarbiya paradigmalari.**

Tarbiya paradigmalari tushunchasi. Zamonaviy tarbiya paradigmalari: 1. Pedagogik paradigma. 2. Andrologik paradigma. 3. Akmeologik paradigma. 4. Kommunikativ paradigma.

12-mavzu. **O‘quvchi-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish.**

Globallashuv sharoitida o‘quvchi-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning nazariy masalalari. O‘quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ma’naviy tahdidlar. O‘quvchi-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik tizimi.

13-mavzu. **O‘quvchi-yoshlarda qadriyatlar tizimini shakllantirish.**

O‘quvchi-yoshlarda qadriyatlar tizimini shakllantirishning tarixiy-falsafiy masalalari. O‘quvchi-yoshlarda qadriyatlar tizimini shakllantirish tamoyillari va mezonlari. O‘quvchi-yoshlarda qadriyatlar tizimini shakllantirish texnologiyasi.

14-mavzu. **O‘quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirish.**

Uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning konseptual-metodologik masalalari. O‘quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik o‘ziga xosliklari. O‘quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. O‘quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning axboriy-metodik ta’minoti.

15-mavzu. **O‘quvchi-yoshlarda axborot xavfsizligi kompetentligini shakllantirish.**

O‘quvchi-yoshlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirish mazmuni. O‘quvchi-yoshlarda axborot-analitik kompetensiyani shakllantirish. O‘quvchi-yoshlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalarda nazariy o‘zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi hamda egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakalari hosil qilinadi.

“Pedagogikaning pragmatik aspektlari” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Zamonaviy ta’limiy konsepsiyalar.
2. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik faoliyatni loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirish.
3. Kooperativ ta’lim: imkoniyatlari va afzalliklari.
4. Kasbiy kompetentlik: tuzilmasi va mohiyati.

5. Ta’lim mazmunini loyihalashtirish.
6. O‘quv materiallarini strukturalashtirish.
7. Fasilitatsion yondashuv asosida mustaqil ishlarni tashkil etish texnologiyasi.
8. Milliy tarbiya jarayoni tashkil etishga doir yondashuvlar.
9. Zamonaviy tarbiya paradigmalari.
10. Tarbiya qonuniyatlari va metatamoyillari.
11. O‘quvchi-yoshlarda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni shakllantirish.
12. O‘quvchi-yoshlarda qadriyatga yo‘nalganlikni tarkib toptirish.
13. O‘quvchi-yoshlarda tolerantlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi.
14. O‘quvchi-yoshlarda shaxsiy axborot xavfsizligi ko‘nikmasini rivojlantirish.
15. Global ta’lim: integratsiya va xalqarolashuv.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta’lim mazmuni ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta’lim ko‘proq ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida o‘rganilmagan masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta’lim asosida o‘qib-o‘rganilgan masalalar fan bo‘yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o‘z aksini topadi.

Mustaqil ta’limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar boyicha mavzularni konspektlashtirish;
- adabiyotlar asosida referat yozish;
- kitob va maqolalarga annotatsiya yozish;
- Internet tarmog‘idan axborotlar izlash va tahlil etish.

“Pedagogikaning pragmatik aspektlari” fani bo‘yicha tavsiya etiladigan mustaqil ta’limning mavzulari:

1. Zamonaviy pedagogikaning konseptual g‘oyalari va tamoyillari.
2. Ta’lim dasturlarini loyihalashga doir konseptual yondashuvlar.
3. Modulli ta’lim dasturlarini ishlab chiqishning konseptual asoslari.
4. Variativ o‘quv dasturlarini ishlab chiqishning konseptual asoslari.
5. O‘quv-metodik komplekslarni ishlab chiqishning konseptual asoslari.
6. Ta’limning innovatsion kartasini ishlab chiqishning konseptual asoslari.
7. Pedagogik faoliyatning konseptual asoslari.
8. Ta’lim pragmatizatsiyasi pedagog kadrlarning tayyorlashning konseptual asosi sifatida.
9. Yosh davrlari pedagogikasining ilmiy-konseptual asoslari.
10. Pedagogik texnologiyaning konsptual asoslari.
11. Kompyuter pedagogikasining konseptual asoslari.
12. Pedagogik diagnostikaning konseptual va texnologik asoslari.

	13. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining konseptual asoslari. 14. Muammoli ta'limning konseptual asoslari. 15. TRIZ pedagogikasining konseptual asoslari. 16. Integrativ pedagogikaning konseptual-metodologik va ilmiy-nazariy asoslari. 17. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning konseptual asoslari. 18. Ta'lim sifatini boshqarishning konseptual asoslari. 19. Hamkorlik pedagogikasining konseptual g'oyalari. 20. O'quv adabiyotlarini yaratishning konseptual asoslari. 21. Yoshlarning pedagogik iqtidorini aniqlash, ularni tanlash va rahbarlik qilishning konseptual asoslari. 22. Uzluksiz pedagogik ta'lim rivojining konseptual asoslari. 23. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning konseptual asoslari. 24. Vatanparvarlik tarbiyasining konseptual asoslari. 25. Ekologik tarbiyaning konseptual asoslari. 26. Oila tarbiyasining konseptual asoslari. 27. Psixoanalitik pedagogikaning konseptual asoslari. 28. Ta'lim muhitini yaratishning konseptual asoslari. 29. Maktabdan tashqari ta'limning konseptual asoslari. 30. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'limning konseptual asoslari.
3.	**V. Fanni o'qitishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** – pedagogikaning qonun va qonuniyatlari; pedagogik faoliyat bilan bog'liq muammolar; o'quv materiallarini tanlab olish tamoyillari va mezonlari; interfaol ta'limning o'ziga xosliklari; pedagogik kontsepsiyalar; shaxs ijtimoiylashuvining pedagogik omillari haqida ***bilimga ega bo'lishi***; – yaxlit pedagogik jarayon qonun va qonuniyatlarini qo'llash; pedagogik faoliyat bilan bog'liq muammolarning obyektiv va subyektiv omillarini aniqlash; o'quv materiallarini tizimlashtirish; interfaol ta'limni tashkil etish; ta'lim va tarbiyaga doir zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanish; shaxsning madaniy-intellektual rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** – pedagogik muammolarni aniqlash; pedagogik muammolarni tahlil etish; pedagogik muammolarni hal etish yo'llarini izlab topish; pedagogikaga doir yangiliklarni o'zlashtirish; pedagogikaga doir yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish ***malakalariga ega bo'lishi lozim;*** –motivatsion-kognitiv; –informatsion; –kommunikativ; –g'oyaviy-mafkuraviy; –fuqarolikka doir –ma'naviy-axloqiy; –akmeologik; –aksiologik ***kompetensiyalarni o'zlashtirishi lozim.***

4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • interfaol ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasi; • modulli ta’lim texnologiyasi; • muammoli ta’lim texnologiyasi; • kooperativ ta’lim texnologiyasi; • refleksiv ta’lim texnologiyasi; • art-texnologiyalar; • veb-kvest; • chizma-tasviriy modellar (mantiqiy graf, freym modeli, tayanch konspekt, semantic tarmoq, intellekt karta).
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** • ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda muntazam qatnashish: munozaralar va o‘quv konferensiyasida ishtirok etish; tayanch konspektlar tuzish; • joriy va oraliq nazorat topshiriqlarini bajarish; • mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; • yakuniy nazorat topshirish**.**
6.	**VIII. Asosiy adabiyotlar** 1. Xodjayev B.X, Saliyeva Z.T, Matkarimova N.B. Pedagogikaning pragmatik aspektlari. Darslik – Toshkent, 2023. – 408 b. 2. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017. 3. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018. 4. Ro’ziyeva D.I., Tolipov O’.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019. 5. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015. 6. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика общей педагогики. Учебник. – Т.: ТГПУ, 2014. 7. Калдыбекова А.С. Жалпы педагогика теориясы жəне практикасы. I. Педагогика теориясы. – Т.: ТДПУ, 2013. 8. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva. – T.: TDPU, 2013. 9. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2012. 10. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O`zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010. 11. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. – М.: ВЛАДОС, 2003. 12. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс: Учебник для студ. пед.

вузов: В 2 кн. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2006.
13. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
14. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
15. Халиков А.А. Педагогик маҳорат. Дарслик. – Тошкент, Иқтисод молия, 2012.
16. Якушева С.Д. Основы педагогического мастерства. Учебник. – Москва.: Академия, 2012.
17. Omonov N.T., Madyarova S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod–moliya, 2009.
18. Маҳмудов Н. М. Ўқитувчи нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
19. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: "Fan va texnologiyalar" нашриёти, 2006.
20. Очилов М., Очилова Н. Ўқитувчи одоби. Сайланма. –Т.: Ўқитувчи,1997.
21. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.
22. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.
23. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.

Qo'shimcha adabiyotlar:

24. Xasanboev J, To'rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.
25. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
26. Niyozov G`., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg`ulotlari. – T.: NOSHIR, 2011.
27. Нишонова С. Комил инсон тарбияси. – Т.: Истиқлол, 2003.
28. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999.
29. Kagan,S. Cooperative learning. 2nd ed. San Clemente, CA:Kagan Publishing, 1994.
30. Hartlej I. Stratedies from Programmed Instrukctionanal Technologj.- London, 2006, 179 r.
31. Heckhausen H. Motivation und Handeln. Berlin: Springer, 2011 – 244 p.
32. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. – Казань: КГУ, 1996.
33. Андреев В.И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. 2-е изд. Казань: Центр информационных технологий, 2003. – 608 с.

	34. Деркач А.А. Акмеология. – М.: РАГС, 2004. 35. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь. – М.: Академия, 2003. 36. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб.: Питер, 2009. 37. Педагогический энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. 38. Педагогика: Большая современная энциклопедия / Сост. Е.С.Рапацевич.– Минск: «Современное слово», 2005. 39. Чернявская А.П. Педагогическое мастерство: Учеб. пособие. - Ярославль, ЯГПУ, 1997. 40. Рогов Е.И. Личность учителя: теория и практика. –Ростов-на-Дону. –Феникс. –1996. 41. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал. – М.: Дело, 1994. **Axborot manbalari** 1. www. tdpu.uz 2. www. pedagog.uz 3. www. Ziyonet.uz 4. www. edu.uz 5. tdpu-INTRANET.ped
7.	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023-yil “___” ______dagi “___”-son Qarori bilan tasdiqlangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari:** Xodjayev Begzod Xudoyberdievich – pedagogika fanlari doktori, professor. Isayev Ilya Fyodorovich – Rossiya Federatsiyasi Belgorod milliy tadqiqotlar universiteti Belgorod pedagogika instituti “Pedagogika” kafedrasi professori, p.f.d. Yutta Stadop – Germaniya Bonn pedagogika universiteti, “Umumiy didaktika va maktab pedagogikasi” kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori.
9.	**Taqrizchilar:** Bozorova Muslima Qodirovna – TerDU “Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Tuychiyeva Inoyatxon Ibragimovna – FarDU “Pedagogika” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)